

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.06.2020.T.111.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI»
MILLIY TADQIQOTLAR UNIVERSITETI**

MUROTOV LOCHINBEK BAHRAMOVICH

**YOPPASIGA YOKI PUSHTALI ISHLOV BERISHGA SOZLANADIGAN
KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA ISH ORGANLARI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Murotov Lochinbek Bahromovich

Yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina ish organlari parametrlarini asoslash

5

Муротов Лочинбек Бахромович

Обоснование параметров рабочих органов комбинированной машины переналаживаемой для сплошной или гребневой обработки почвы.....

19

Murotov Lochinbek Bakhromovich

Justification of the parameters of the working bodies of the combined machine, reconfigurable for solid or ridge surface treatment

36

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

40

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.06.2020.T.111.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI»
MILLIY TADQIQOTLAR UNIVERSITETI**

MUROTOV LOCHINBEK BAHROMOVICH

**YOPPASIGA YOKI PUSHTALI ISHLOV BERISHGA SOZLANADIGAN
KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA ISH ORGANLARI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3353 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqotlar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.qmii.uz va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmetov Adilbek Agabekovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Astanakulov Komil Dullievich
texnika fanlari doktori, professor

Qurbonov Sherzod Baxtiyorovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

**Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi
Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini
sertifikatlash va sinash davlat markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «15» *avgust* soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*77*- raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «04» *avgust* kuni tarqatildi.
(2023-yil «04» *avgust* № *31* raqamli reestr bayonnomasi).



F.M.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

D.Sh.Chuyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Z.L.Batirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jaligi rivojlanib, yil davomida ekin ekish orqali yerlardan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda yerlarni ekishga tayyorlashning energiya va resurstejamkor texnologiyasi va texnika vositalarini qo‘llash etakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida 850-900 mln. gektar yerga ishlov berilib, qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtirilishi va bunda yerga ekish oldidan ishlov berish umumiy ish hajmining asosiy qismni tashkil etishini hisobga olsak»¹, yerlarni ekishga tayyorlashda ish sifatini oshirish hamda resurslarni tejash uchun kam metall va energiya sarfiga ega agregatlarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, yoppasiga va pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yerlarni pushtali va pushtasiz ko‘rinishda ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan bitta agregatning o‘zida yerlarni qishloq xo‘jalik ekinlarini ham tekis maydonlarda, ham pushtalarda ekish uchun sifatli tayyorlab ketish bilan birga energiya va resurslarni tejash imkonini beradigan qurilmalarni yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu jihatdan yerlarni pushtali va pushtasiz ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyasi va uni amalga oshiradigan faol ishchi qismli kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqish, uning texnologik ish jarayoni hamda ishchi qismlarining parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda takroriy ekinlar yetishtirish hajmining ortishi bilan yerlarni qisqa muddatda sifatli ekishga tayyorlash imkonini beradigan kam metall va energiya sarfiga ega resurstejamkor mashinalar va texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasida, jumladan «qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga etkazish»² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, yerlarni ekishga tayyorlash jarayonida, bitta agregat bilan tekis yerlarga sayoz ishlov beradigan va zarurat bo‘lgan sayoz ishlov berish bilan birga pushta hosil qilib ketadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqish va ishchi qismlarining yuqori ish sifati va resurstejamkorlikni ta‘minlaydigan parametrlarini asoslash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PF-4709-son «Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

Farmoni va 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida» va 2019-yil 29-yanvardagi PQ-4575-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020- yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari va hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik»da keltirilgan ustuvor yo‘nalishlarga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tuproqqa ekish oldidan ishlov berish kombinatsiyalashgan mashinalar va ular ish organlarining tuproqqa ta‘sirlashish jarayonlari bo‘yicha tadqiqotlar V.P. Vasilenko, A.D. Dalin, G.N. Sineokov, I.M. Panov, P.V. Pavlov, A.F. Juk, O.S. Marchenko, A.S. Kushnarev, N.K. Mazitov, H. Bernacki, J. Bollinq, W. Sohne, R. Till, H. Heyde, R. Hoffman va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

O‘zbekiston sharoitida tuproqqa ekish oldidan ishlov beradigan mashinalar konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar G.M. Rudakov, R.I. Boymetov, M.A. Axmedjanov, V.N. Sokolov, A. To‘xta‘qoziev, A.A. Axmetov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan mashina va qurilmalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, ammo ham passiv va ham rotatsion ish organlar konstruksiyasini takomillashtirish hamda dalani yoppasiga ishlov berishdan pushtaliga yoki pushtalidan yoppasiga ishlov berishlarga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash masalalasi etarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqotlar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining KX-Atex-2018-393 «Tuproqni takroriy ekinlarni ekish uchun turli usullar bilan (yoppasiga, pushtali yoki jo‘yakli) tayyorlaydigan unifikatsiyalashgan tez almashadigan ish organlarli kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqish» (2018-2020) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni ekish oldidan yoppasiga va pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

takroriy ekinlar ekish uchun ekish oldidan ishlov berishda qo‘llaniladigan mavjud texnologilar va texnika vositalarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil

etish;

takroriy ekinlar ekish uchun yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasini asoslash va uning ish sifatiga ta'sir etuvchi ish organlarining parametrlari hamda ish rejimlarini aniqlashga imkon beradigan mexanik-matematik modellarni ishlab chiqish;

minimal energiya sarflagan holda tuproqning samarali yumshatishni ta'minlaydigan ish organlarning konstruksiyasini ishlab chiqish;

ish organlarning tavsiya etilgan shakllari va parametrlarini takroriy ekin ekish uchun tuproqni yoppasiga yoki pushtali ishlov berish uchun sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasiga tadbiq etish va uni qo'llashning agrotexnik va texnik-iqtisodiy samaradorligini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti. Takroriy ekinlar ekish uchun erlarga yoppasiga va pushtali ekish oldidan ishlov berishda hosil bo'ladigan tuproq foni, tuproqni yoppasiga yoki pushtali ishlov berish uchun sozlanadigan kombinatsiyalangan mashina va uning ish organlari.

Tadqiqotning predmeti tuproqning fizik-mexanik xossalari, yoppasiga yoki pushtali ishlov beradigan kombinatsiyalangan mashina va uning ish organlarining texnologik sxemalari, konstruktiv-texnologik parametrlari va ish rejimlari, mashina va uning ish organlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot usullari sifatida klassik mexanikaning asosiy qoida va usullari, matematik tahlil, matematik statistika, tenzometriya usullari, mashinalarning agrotexnik, energetik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini umumiy aniqlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yumshatkich panja, faol rotor, zichlovchi g'altak, egat ochkich va pushta shakllantirgich bilan jihozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi tuproqqa yoppasiga hamda pushtali ishlov berishni hisobga olinib ishlab chiqilgan;

prujinasimon S-ko'rinishidagi xivichlar bilan jihozlangan notekis yuzali ishchi organning konstruksiyasi bir vaqtda cho'zish va siqish deformatsiyalarini yuzaga keltirish orqali tuproqni jadal yumshatilishini hisobga olinib ishlab chiqilgan;

tuproqni yumshatuvchi ishchi organning dungliklari va prujinasimon S-ko'rinishidagi xivichlarning parametrlari tuproqni talab darajasida uvalanishini hisobga olgan holda aniqlangan;

sozlanadigan kombinatsiyalangan mashinaning sifat va energetik ko'rsatkichlari uning ish organlarining parametrlari va harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarishini ifodalaydigan bog'lanishlar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yerlarni takroriy ekinlar ekishga tayyorlash uchun tuproqqa yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tuproqqa yoppasiga yoki pushtali ishlov beradigan kombinatsiyalashgan mashina qo'llanilganda bir o'tishda takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni

tayyorlashni ta'minlanishi hisobiga ish unumdorligining oshishiga, metall, energiya va yonilg'ı hamda mehnat sarflarini kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, kombinatsiyalashgan mashinaning frezali faol va g'ılofli passiv ishchi qismlari parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashinaning dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takroriy ekinlar ekish uchun yoppasiga yoki pushtali ishlov berish uchun sozlanadigan kombinatsiyalangan mashinaning ishlab chiqilganligi, mashina ishchi organlarini tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalaydigan matematik modellar va analitik bog'lanishlar olinganligi hamda ulardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati yerlarni takroriy ekinlar ekishga tayyorlash uchun tuproqqa yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalangan mashina bilan dalalarga bir o'tishda sifatli ishlov berish hisobiga yonilg'ı va mehnat sarfini kamayishi hamda ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina ish organlari parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

yerlarni takroriy ekinlar ekishga tayyorlash uchun tuproqqa yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalangan mashina ishchi qismiga Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingan («Tuproqqa ishlov beradigan ish organi» IAP 06800-2022 й). Natijada tuproqqa yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

takroriy ekinlar ekish oldidan tuproqni yoppasiga yoki pushtali tayyorlash uchun sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina Toshkent viloyati Zangiota tumani fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 9-fevraldagi 04/28-28-08/70-son ma'lumotnomasi). Natijada g'alladan bo'shagan maydonlarni takroriy ekin ekishga tayyorlashda yonilg'ı va ekspluatatsion sarf xarajatlarni 1,2 martagacha kamaytirish imkonini bergan;

tuproqni yoppasiga yoki pushtali tayyorlash uchun sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina bo'yicha loyiha konstruktorlik hujjatlari (texnik topshiriq va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 9-fevraldagi 04/28-28-08/70-son ma'lumotnomasi). Natijada dalaga yoppasiga yoki pushtali ishlov berib, takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlashga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab

chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 10 ta, jumladan 5 ta halqaro va 5 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 1 ta ixtiroga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoni holati va tadqiqot vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida respublikamizda tuproqni takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlashning hozirgi holati, takroriy ekinlar ekishga tuproqqa yoppasiga va pushtali ishlov berish mashinalar konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dunyo amaliyotida kombinatsiyalashgan mashinalar konstruksiyasini takomillashtirish tendensiyasi tuproqqa ishlov berishning yangi texnologik usullarini amalga oshiradigan energiya va resurslarni tejaydigan ish organlardan foydalanishga yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga, ko‘pgina kombinatsiyalashgan mashinalarning konstruksiyalari bir-biriga o‘xshash, faqat ish organlarning turi bilan farq qiladi va bu mashinalar yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanishlarsiz tuproqni u yoki bu ishlov berish turiga mo‘ljallangan.


O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida va muammoni hal etishda qarashlar va yondashuvlarning umumiylikini hisobga olgan holda, takroriy ekinlarni ekish uchun yoppasiga va pushtali ishlov berish uchun sozlanadigan kombinatsiyalangan mashinani yaratish bo‘yicha tadqiqotning maqsadi va vazifalar belgilangan.

Dissertatsiyaning «**Sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning ish organlari parametrlarini nazariy asoslash**» deb nomlangan ikkinchi bobida tuproqni takroriy ekinlar ekish uchun yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning tuzilishi va texnologik jarayoni

hamda u ish organlarining asosiy parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlarni natijalari keltirilgan.

Tuproqni takroriy ekinlar ekish uchun unga yoppasiga (1-variant) hamda pushtali ishlov berish uchun (2-variant) ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashina (1-rasm) quyidagi qisman almashinadigan ishchi organlar bilan jihozlanishi mumkin: osish qurilmali rama, tayanch g'ildiraklar, innovatsion passiv ishchi organ 1, rotor 2, korpus 3, tekislagich 4, zichlovchi g'altakmola 5, egatochkich 6 va pushta shakllantirgich 7.

Tuproqning yoppasiga ishlov berishda qullanalidigan kombinatsiyalashgan mashina (1-variant) innovatsion passiv ish organ 1, rotor 2, tekislagich fartugi 3 va zichlovchi g'altakmola 4 bilan jihozlaniladi. Bu ish organlar komplekti bilan mashinaning ish vaqtida passiv ish organ 1 tuproqning 12-18 sm chuqurlikda yumshatadi, rotor 2 tuproq yuza qatlamini 8-12 sm chuqurlikda maydalaydi, tekislagich fartugi 3 ishlov berilgan yuzani tekislaydi, zichlovchi g'altakmola 5 esa uni zichlaydi.



*a – tuproqqa yoppasiga ishlov berilganda; b – pushtali ishlov berilganda;
v – yoppasiga ishlov berilgan tuproqning ko'ngdalang kesimini ko'rinishi;
g – pushtali ishlov berilgan tuproqning ko'ngdalang kesimini ko'rinishi*


1-rasm. Sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina ish jarayoni texnologik sxemasi

Pushtali ishlov berishda esa kombinatsiyalashgan mashinada (2-variant) tekislagich fartugi va zichlovchi g'altakmola o'rniga egatochkich 6 va pushta shakllantirgich 7 o'rnatiladi. Mashinaning ish jarayonida passiv ish organi 1 tuproqni 12-18 sm chuqurlikda yumshatadi, rotor 2 tuproq yuza qatlamini 8-12 sm chuqurlikda maydalaydi, egatochkich 6 esa dastlabki egatni shakllantiradi. Pushta olgich 7 pushtani tuliq shakllantiradi va uning yuza qatlamini zichlaydi.

Ma'lumki, mavjud passiv ish organlarda panja qanotlari ishchi yuzaning butun uzunligi bo'yicha bir xil uvalash burchagiga ega. V.P. Goryachkin nazariyasiga ko'ra, tuproqning uvalanishi panjaning tuproqqa kirishidagi dastlabki bosqichida sodir bo'ladi va keyinchalik u qanot yuzasi bo'ylab sezilarli darajada parchalanmasdan harakat qiladi. Mavjud ish organlaridagi ushbu kamchiliklarni

bartaraf etish uchun kombinatsiyalashgan mashinada tuproqni uvalashda almashinadigan zo‘riqish holatlari: cho‘zilish va siqilishni amalga oshiradigan innovatsion passiv ish organlar (2-rasm) taklif qilingan, u O‘zbekiston respublikasi Intellektual mulk agentligining IAP 06800 ixtiroga patenti bilan himoyalangan.

Taklif qilingan innovatsion ishchi organ qanotlarining ishchi yuzasi 8 da uning tig‘lari 6 dan keyin yarim konussimon bo‘rtik shaklida do‘ngliklar 7 hosil qilingan. Har bir do‘nglik 7 qanotning orqa chetidan uning teskari egilgan tomoniga biriktirilgan prujinali xivich 5 bilan jihozlangan. Bunda prujinasimon xivich 5 S shaklda ishlangan va ular do‘nglik 7 larga mahkam berkitilgan.




2-rasm. UZ IAP patent bo‘yicha innovatsion ishchi organ

Tig‘ning kesish burchagi bir xil bo‘lishiga qaramay, bu ish organi uvalash burchagi qanot kengligi bo‘ylab har xil ($\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_i$) bo‘ladi. Bunda qanotlarning chetidan do‘ngliklar orasidagi markazida uvalash burchagi β_1 ga teng bo‘lsa, do‘ngliklarning kengligi bo‘ylab – β_2 burchak, do‘ngliklar yonbosh tomonidan esa - β_i burchak. SHunday qilib, qanotning butun yuzasi bo‘ylab uvalash burchagi har xil bo‘ladi va uning qiymatlari 25 dan 70° gacha oraliqda o‘zgaradi. Ish organining ishlash vaqtida prujinasimon xivich 5

ni S shaklda ishlanganligi uchun boshqa shakldagi xivichlarga nisbatan o‘simlik qoldiqlari tiqilib qolmaydi.

Bunday ish organ bilan tuproqqa ta’sir etganda seriyalab ishlab chiqarilayotgan passiv ish organlaridan farqli ravishda unda bo‘ylama va ko‘ndalang tekisliklarda o‘zgaruvchan zo‘riqish holat hosil bo‘lib, tuproqning intensiv yumshatilishi bilan birga sodir bo‘ladi.

Innovatsion passiv ish organidan keyin joylashgan rotor tuproqni 8 ± 1 sm chuqurlikda ishlov berishi ta’minlash uchun rotorning radiusi r_r ni hisobiy sxemaga (3-rasm) muvofiq bo‘lishi lozim



3-rasm. Rotor radiusini aniqlashga doir hisobiy sxema


$$r_p = a_p + \frac{r_v + \frac{b_{cm}}{2}}{\cos \frac{\pi}{6}} + b_{cm} + \Delta r, \quad (1)$$

bunda a_r – belgilangan ishlov berish chuqurligi, m; r_v – rotor valining radiusi, m; b_{st} – pichoq ustunini kengligi, m; Δr – disk va dala yuzasi orasidagi masofa, m.

Hisoblashlarning ko‘rsa-

tishicha (1) ifoda bo'yicha $\Delta r = 10 \text{ mm}$; $r_v = 40 \text{ mm}$; $b_{cm} = 30 \text{ mm}$; $a_r = 80 \text{ mm}$ larda $Z_n = 3$ dona juft pichoqlar bilan jihozlangan rotorning radiusi 183.51 mm teng bo'ladi. $r_r = 180 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

Rotor tomonidan ishlov berilgan tuproqni tekislab, keyinchalik zichlaydigan fartuk-tekislagichning asosiy parametrlari uning ishchi uzunligi l_f va balandligi h_f , ishchi yuzasining pastki qismini egrilik radiusi r_z . Ishchi uzunligi l_f va balandligi h_f sonli qiymatlari dinamik muvozanatda bo'lgan cho'zilish prizmasining o'lchamlaridan aniqlanadi.



4-rasm. Fartuk-tekislagich parametrlarini aniqlash uchun hisobiy sxema

4-rasmga muvofiq bu shartni ta'minlash uchun

$$l_\phi = \frac{h_{np}^{(M)}}{\sin \alpha_n}, \quad (2)$$


bunda α_n – gorizontga nisbatan fartuk-tekislagich maksimal og'ish burchagi, gradus.

Fartuk-tekislagich ishchi yuzasining pastki qismini egrilik radiusi r_z ni maqbul qiymatini r_{km} radiusli kesak qisilishida tuproq zarrachasining pastga sirpanishini

ta'minlashi shartidan aniqlanadi.

$$r_3 \geq \frac{r_{KM} [1 + \cos(\varphi_c + \varphi_n)]}{1 - \cos(\varphi_c + \varphi_n)}, \quad (3)$$

bunda φ_s, φ_p – mos ravishda tuproq po'latga va tuproqning tuproqqa ishqalanish koeffitsientlari.



5-rasm. Pushta shakllantirgichning asosiy parametrlari

Fartuk-tekislagichning ishchi uzunligi va balandligining maqbul qiymatlari 220 mm va 200 mm ga teng, ishchi yuzasining pastki qismini egrilik radiusi esa – $101,5 \text{ mm}$.

Pushta shakllantirgichning asosiy parametrlari (5-rasm): pushta shakllantirgichning kiruvchi V_v va chiquvchi b_{vg} qirralarini kengligi, yonbosh ag'dargichlarini harakat yo'nalishiga va gorizont tekislikka nisbatan o'rnatilish burchagilari α va β_{og} , pushta olgich uzunligi L , yonbosh

ag'dargichning uzunligi L_{bo} .

AV va SD yonbosh ag'dargichlarning harakat yo'nalishiga nisbatan maqbul o'rnatilish burchagi α ni tuproqning ag'dargich bo'ylab erkin sirpanishini ta'minlash shartidan aniqlandi, ya'ni

$$\alpha \leq \frac{\pi - 2\varphi_c^{max}}{4}, \quad (4)$$

bunda φ_s^{max} – tuproqning ag‘dargich bo‘ylab maksimal ishqalanish burchagi, gradus.

Ko‘plab mualliflarning ma‘lumotlariga ko‘ra tuproqning metallga ishqalanish burchagi 21 dan 42° gacha oraliqda bo‘ladi. U holda tuproqning ishqalanish burchagining maksimal qiymatini 42° ekanligini e‘tiborga olib, (4) ifoda asosida $\alpha \leq 23^\circ$ qabul qilamiz.

5-rasmga asosan pushta shakllantirgichning uzunligi

$$L = \frac{1}{2} (B_p - b_{hz}) ctg \alpha \quad (5)$$

u holda

$$B_e = 2Ltg \alpha + b_{ez}. \quad (6)$$

bunda V_r – ishchi qamrov kengligi, m.

Odatda bu pushta shakllantirgich uchun pushtaning asosiga teng, ya’ni 70 sm (700 mm);

b_{ng} – pushta shakllantirgichning chiqish qirrasini kengligi, m.

Agrotexnika talablariga muvofiq etishtiriladigan ekin turiga nisbatan $b_{ng} = 200-300$ mm oraliqda o‘zgarib turadi;

b_{vg} – pushta shakllantirgich chiqish qirrasini yuqori qismini kengligi, m.

(5) ifodaga B_r , b_{ng} va α qiymatlarini qo‘yib, pushta shakllantirgichning uzunligi $L = 495,0-618,8$ mm oralig‘ida bo‘lishi lozim. Konstruktiv tushunchani hisobga olib, $L = 600$ mm qabul qilamiz.

Pushta shakllantirgich chiqish qirrasining yuqori qismi kengligini $b_{vg} = 220$ mm bo‘lishini aniqlagandan so‘ng qiruvchi qirrasining kengligini $B_v = 619,9-719,3$ mm bo‘lishini aniqlaymiz. Konstruktiv tushunchani hisobga olib, $B_v = 680$ mm qabul qilamiz.

Ag‘dargichning o‘rtacha balandligi h ni pushtaning ruxsat etilgan minimal balandligi N_g ga teng etib, ya’ni $h_g = 160$ mm qabul qilamiz.

Dissertatsiyaning «**Eksperimental tadqiqotlarning shartlari, usullari va natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish dasturi, shartlari va usullari, takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlangan tuproqning fizik-mexanik xossalari, passiv ish organi, rotor, fartuk-tekislagich va pushta shakllantirgich parametrlarining kombinatsiyalashgan mashina ish sifati ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish va ular parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Kombinatsiyalashgan mashina yumshatkich ish organlarining taqqoslov sinovlari. Kombinatsiyalashgan mashina uchun tuproqni yumshatadigan ishchi organning maqbul turini tanlash maqsadida keng qamrovli oddiy o‘q-yoysimon panja, plastinkali chiqiqlarga ega keng qamrovli o‘q-yoysimon panja va o‘rkachli-chiviqli keng qamrovli o‘q-yoysimon panjaning o‘zaro taqqoslov sinovlari olib borildi.

Ularning ishlov berish chuqurligi bir xil 15 sm ga qo‘yilib, ishlov berishlar

oʻtkazilganda keng qamrovli oddiy oʻq-yoysimon panjaning ishlov berish chuqurligi oʻrtacha 14,6 sm ni, plastinkali chiqiqlarga ega keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaning ishlov berish chuqurligi 14,3 sm ni va oʻrkachli-chiviqli keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaning ishlov berish chuqurligi 14,7 sm ni tashkil etdi. Ishlov berish chuqurligining belgilangandan farqi mos ravishda $\pm 0,61$ sm, $\pm 0,72$ sm va $\pm 0,66$ sm ga teng boʻldi (1-jadval).

1-jadval

Yumshatkich ish organlarining agrotexnik va energetik koʻrsatkichlari

№	Ish organlarining variantlari	Ish organlarining agrotexnik va energetik koʻrsatkichlari						
		Ishlov berish chuqurligi, sm		Tortishga qarshilik kuchi, kN		Tuproq fraksiyasining oʻlchamlari (mm) boʻyicha tarkibi, %		
		M_o	$\pm\sigma$	M_o	$\pm\sigma$	>100	100-50	<50
1	Keng qamrovli oʻq yoysimon yumshatkich panja	14,6	0,61	2,0	0,17	10,58	25,32	64,10
2	Plastinkali chiqiqlarga ega keng qamrovli oʻq yoysimon panja	14,3	0,72	2,3	0,21	8,40	19,06	72,54
3	Oʻrkachli-chiviqli keng qamrovli oʻq yoysimon panja	14,7	0,66	2,1	0,24	7,36	16,81	75,83

Taqqoslangan yumshatkich panjalar ichida oʻrkachli-chiviqli keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaning tortishga qarshiligi 2,2 kN ni tashkil etib, boshqa yumshatkich ishchi organlarga nisbatan oʻrtacha boʻldi. Ammo bu turdagi ishchi organda tuproqning uvalanishi boshqa turdagi ishchi organlarga nisbatan yaxshiroq boʻldi.

Oʻrkachli-chiviqli keng qamrovli oʻq-yoysimon panja bilan ishlov berilgan joyda oʻlchami 100 mm dan katta fraksiyalar 7,36 foizni tashkil etib, oddiy keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaga nisbatan 3,22 foizga kam boʻlgan boʻlsa, plastinkali chiqiqlarga ega keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaga nisbatan 1,1 foizga kam boʻldi.

Oʻlchami 50 mm dan kichik fraksiyalar miqdori esa oʻrkachli-chiviqli keng qamrovli oʻq-yoysimon panja bilan ishlov berilgan joyda 75,83 foizni tashkil etib, oddiy keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaga nisbatan 11,7 foizga koʻp boʻlgan boʻlsa, plastinkali chiqiqlarga ega keng qamrovli oʻq-yoysimon panjaga nisbatan 3,31 foizga koʻp boʻldi.

Shunga asosan tuproqqa yoppasiga va pushtali ishlov beradigan

kombinatsiyalashgan mashinani o'rkachli-chiviqli keng qamrovli o'q-yoysimon panja bilan jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kombinatsiyalashgan mashina frezasining ish rejimini tanlash. SHudgorlangan dala tuprog'iga kombinatsiyalashgan mashina bilan ishlov berishda freza va agregat tezligining maqbul nisbatini tanlash muhim hisoblanadi. SHu maqsadda frezaning maqbul aylanma tezligi 7,5 m/s bo'lgani holda, agregat tezligi 1,4 m/s dan 2,4 m/s gacha oraliqda o'zgartirildi. Bu traktorning 6-9 km/soat tezliklarida ta'minlandi.

Agar belgilangan talablar bo'yicha o'lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori kamida 80 foiz bo'lishini hisobga olsak, u holda bu ko'rsatkichni frezaning tezligi 7,5 m/s bo'lgani holda traktor tezligi 1,4 – 2,2 m/s oralig'ida bo'lganda to'liq ta'minlaydi. Ammo traktorning tezligi 2,4 m/s bo'lganda esa tuproqdagi o'lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori kamayib, 79,6 foizni tashkil etib, belgilangan talablardan biroz kam bo'lishi ma'lum bo'ldi. Shunga asosan kombinatsiyalashgan mashinadan foydalanilganda traktorning tezligi 6-9 km/soat oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Kombinatsiyalashgan mashina egat ochkichining parametrlarini tadqiq etish. Tajribalarda kombinatsiyalashgan mashinaning egat ochkich ishchi organining yurish chuqurligi 8 sm dan 16 sm gacha, egat ochkichi ag'dargichining ochilish burchagi 30 gradusdan 70 gradusgacha, egat ochkich ag'dargichi qanotining balandligi 0 dan 12,5 sm gacha o'zgartirib tadqiq etildi va ularning hosil qilingan pushta balandligi va pushta tepasining kengligi hamda tortishga qarshiligiga ta'siri aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Egatochgich ishlov berish chuqurligining ish ko'rsatkichlariga ta'siri


№	Ko'rsatkichlarning nomi	Egatochgich ishlov berish chukurligi				
		$S_{i.ch.}, sm$				
		8	10	12	14	16
1	Pushta o'lchamlari:					
	- balandligi h_y , sm	13,6	18,8	22,6	25,7	28,6
	- tepasining kengligi b_2 , sm	36,7	27,6	16,2	10,3	6,4
2	Tortishga qarshilik R, N	576,4	673,3	774,7	867,2	964,5

Bunda egat ochkichning yurish chuqurligi 12 sm bo'lganda balandligi 22,6 sm, tepasining kengligi 16,2 sm bo'lgan pushta hosil qilinib, talab etilgan pushtani shakllantirishga muvaffaq bo'lindi. Bunda egat ochkichning tortishga qarshiligi 774,7 N ga teng bo'ldi.

SHuningdek, belgilangan talab darajasidagi pushta egat ochkich qanotining ochilish burchagi 50 va 60 gradus bo'lganda hosil bo'ldi. Bunda ularning balandligi 22,0 va 24,4 sm ga, tepasining kengligi 16,3 va 12,6 sm ga teng bo'ldi (6-rasm). Ammo pushtaga kamroq qarshilik bilan shakl berish nuqtai nazaridan egat ochkich qanotining ochilish burchagi 50 gradus bo'lganda hosil qilingan pushta maqbul

hisoblanadi. SHU sababli egat ochkich qanotining ochilish burchagini 50 gradus etib oʻrnatish tavsiya etiladi.

Egat ochkich agʻdargichi qanotining balandligi 0 dan 12,5 sm gacha oshirib pushtalar shakllantirilganda, qanot balandligi 5,0 sm boʻlganda pushtaning balandligi 27,8 sm, uning tepasining kengligi esa 14,7 sm ni tashkil etdi va unga pushta shakllantirgich bilan kam energiya sarflab ishlov berib, balandligini 18-20 sm ga tepasining kengligini esa 20-22 sm ga keltirish mumkin.




6-rasm. Egat ochkich agʻdargichi ochilish burchagi (a) va qanoti balandligi (b) ga bogʻliq ravishda pushtaning balandligi (1) va tepasining kengligi (2) ni oʻzgarishi

Kombinatsiyalashgan mashina pushtaga shakl beradigan moslamasi ishini tadqiq etish. Egat ochkich bilan hosil qilingan pushtaga pushta shakllantirgich bilan ishlov berilganda pushtaning balandligi 18,6 sm dan 21,4 sm gacha oraliqda boʻlsa, pushta tepasining kengligi esa 20,2 sm dan 21,6 sm gacha oraliqda boʻladi. Umuman, pushta shakllantirgich bilan ishlov berilgan pushtaning balandligi oʻrtacha 20,1 sm ni, oʻrtacha kvadratik chetlashishi 0,94 sm ni, pushtaning kengligi 20,8 sm ni, oʻrtacha kvadratik chetlashishi 0,47 sm ni tashkil etishi maʼlum boʻldi. Bu esa shakllantiriladigan pushtaga qoʻyiladigan talablarga javob beradi.

Dissertatsiyaning «Tuproqni yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan tajribaviy kombinatsiyalangan mashinaning xoʻjalik sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi» deb nomlangan toʻrtinchi bobida tuproqni yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinaning qisqacha texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning foydalanishdagi iqtisodiy samaradorligi hisobi keltirilgan.

Tuproqni yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina tajriba nusxasi (7-rasm) belgilangan texnologik jarayonlarni ishonchli bajardi va uning ish sifati koʻrsatkichlari unga qoʻyilgan talablarga toʻliq mos boʻldi hamda u miqdoriy-sifat va texnik-ekspluatatsion koʻrsatkichlari boʻyicha seriyalab ishlab chiqariladigan mashinalardan ustunlikka ega va bir oʻtishida tuproqni takroriy ekin ekish uchun tayyorlashni amalga oshiradi.



a

b

7-rasm. Tuproqni yoppasiga (a) yoki pushtali (b) ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina

Takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni yoppasiga yoki pushtali tayyorlashga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashinani qo'llash mehnat sarfini 64,5 foizga va 1 gektar erga sarflanadigan ekspluatatsion xarajatlarni esa 1,69 martaga kamaytirish imkonini berib, bitta agregatdan bir yilda 56432451,7 so'm iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

XULOSA

«Yoppasiga yoki pushtali ishlov berishga sozlanadigan kombinatsiyalashgan mashina ish organlari parametrlarini asoslash» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Takroriy ekinlar ekish uchun tuproqqa ekish oldidan ishlov beradigan texnik vositalar konstruksiyalarining holati va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish hamda ular ishchi organlarining konstruktiv xususiyatlarini asosida tuproqqa ekish oldidan yoppasiga va pushtali ishlov berishga moslanadigan kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasini ishlab chiqish imkonini berdi.

2. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari bo'yicha kam energiya sarflab talab darajasida tuproqni yumshatilishini ta'minlash uchun innovatsion ishchi organ panjasining uvalash burchagi 16° - 38° oralig'ida, qanotlaridagi o'rkachlar orasidagi masofa 96 mm va S-simon chiviq uzunligi 100 mm bo'lishi lozim.

3. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari freza rotori radiusi 184 mm, uning pichoqining charxlash burchagi 16° - 18° oralig'ida, o'rnatilish burchagi 5° ^{32'}, fartuk-tekislagich ish sirting uzunligi va balandligi mos ravishda 220 mm va 200 mm, ishchi yuzasi pastki qismining egrilik radiusi 101,5 mm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

4. Kombinatsiyalashgan mashina egat ochkichining yurish chuqurligi 14 sm, egat ochkich qanotining ochilish burchagi 50° va pushta olgich ag'dargichi qanotining balandligi 5,0 sm bo'lganda yozda shudgorlangan dalada eng maqbul o'lchamdagi pushta hosil qilish ta'minlanadi.

5. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha kam energiya sarflab talab qilingan shakldagi pushta shakllantirish uchun pushtashakllantirgich uzunligi 600

mm, kirish chetining kengligi 680 mm, ag'dargichning o'rnatilish burchagi 22° , ag'dargich balandligi 160 mm, yon qirradi ag'dargichi uzunligi 178 mm bo'lishi lozim.

6. Kombinatsiyalashgan mashinaning 6-9 km/soat ish tezliklari oralig'ida kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi pushtani shakllantirish uchun mashina frezasining aylanma tezligi 7,5 m/s, egat ochkichning yurish chuqurligi 14 sm, egat ochkich qanotining ochilish burchagi 50 gradus, pushta olgich ag'dargichi qanotining balandligi 5,0 sm, pushta shakllantirgich old qismining eni 70 sm, orqa qismi eni esa 22 sm bo'lishi lozim.

7. Ishlab chiqilgan tuproqqa yoppasiga hamda pushtali ishlov beradigan kombinatsiyalashgan mashinani qo'llash bir gektar yerga ishlov berish uchun sarflanadigan mehnat sarfini 64,5 foizga va ekspluatatsion xarajatlarni 1,69 martaga kamaytirish imkonini berib, bitta agregatdan bir yilda 56432451,7 so'm iqtisodiy samara olishga erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

МУРОТОВ ЛОЧИНБЕК БАХРОМОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РАБОЧИХ ОРГАНОВ
КОМБИНИРОВАННОЙ МАШИНЫ ПЕРЕНАЛАЖИВАЕМОЙ
ДЛЯ СПЛОШНОЙ ИЛИ ГРЕБНЕВОЙ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2022.4.PhD/T3353

Диссертация выполнена в Национально-исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице www.qmii.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Ахметов Адилбек Агабекович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Астанакулов Комил Дуллиевич
доктор технических наук, профессор

Курбанов Шерзод Бахтиярович
доктор философии по техническим наукам,
dotsent

Ведущая организация:

**Государственный центр сертификации и
испытаний Сельскохозяйственной
техники и технологии при Министерстве
сельского хозяйства Республики
Узбекистан**

Защита диссертации состоится «15» август 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.T.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г. Карши ул. Мустакиллик, д. 225. Тел: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер 77). Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz.

Автореферат диссертации разослан «04» август 2023 года.
(Протокол рассылки № 31 «04» август 2023 года).



Ф.М.Маматов

Председатель научного совета по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

Д.Ш.Чуянов

Учёный секретарь научного совета по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

З.Л.Батиров

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению учёной степени, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в связи с развитием сельского хозяйства и с увеличением потребности на эффективности использования полей путем посева культур в течение года, ведущее место занимает применение энерго-ресурсосберегающих технологий и технических средств для подготовки полей к посеву. «Если учесть, что сейчас в мировом масштабе обрабатывается 850-900 млн. гектар земли и в них возделываются сельскохозяйственные культуры и предпосевная обработка почвы составляет основную часть в общем объеме обработки почвы»³, то повышение качества работы и сбережение ресурсов при обработке почвы требуют широкое внедрение почвообрабатывающих агрегатов с меньшим затратам энергии и металла. В этом аспекте, большое значение имеет внедрение перенастраиваемых комбинированных машин, для подготовки почвы сплошного и гребневого способа.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений, ресурсосберегающих технологий и технических средств для подготовки полей к севу путем сплошного и гребневого способа обработки почвы. В этом направлении, в частности, одной из важных задач является создание устройств, позволяющих обеспечить подготовки почвы для посева семян сельскохозяйственных культур и на ровный, и на гребневый поверхность, а также энерго-ресурсосбережение путем совмещения выполняемых операций. В этом аспекте разработка ресурсосберегающей технологии подготовки почвы в виде сплошного и гребневого обработки почвы и комбинированной машины, с активным рабочим органом, для осуществления этой технологии, обоснование технологического процесса его работы, а также параметров рабочих органов является актуальной.

В республике, учитывая рост спроса сельскохозяйственных продуктов и увеличение потребности в продуктах питания, с увеличением объема и площади посева повторных культур, проводятся широкомасштабные мероприятия по разработке ресурсосберегающих технологий и менее энерго-металлоемких устройств для хозяйств, обеспечивающих качественное подготовки почвы для посева повторных культур после зерновых. В Новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы, намечены задачи, в частности, «...увеличить доходы фермеров не менее чем в 2 раза за счет интенсивного развития сельского хозяйства на научной основе, добиться ежегодного прироста сельского хозяйства не менее 5%»⁴. При выполнении этих задач, вместе с энерго- и ресурсосбережением, важным является разработка комбинированной машины для предпосевной обработки почвы сплошным способом и при необходимости переналаживаемой на гребневой более влажные слои на поверхность поля, а в другом – на дне борозды оставляют заметные

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>;

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г за номером УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

